



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

METAVERS TURIZMI: VIRTUAL DUNYODAGI SAYOHATNING IQTISODIY, HUQUQIY VA IJTIMOIIY NATIJALARI	12
Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
Eshimova Sevinch Baxtiyor qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUN'IY INTELLEKT VA PLATFORMA EKOTIZIMLARINING KORXONA INNOVATSIYALARIDAGI O'RNI	16
Izzatullayeva Madinabonu Yolqin qizi	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE ECONOMIC DAMAGE OF ECOLOGICAL HAZARDS IN URBAN AREAS: CONCEPTUAL SHORTCOMINGS OF NON-MARKET VALUATION METHODS AND THE INTEGRAL DAMAGE FUNCTION APPROACH	20
Abbos Saydullaev	
Iqboloy Choriyorova	
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOT IMKONIYATLARI	31
Ibragimova Rayxon Tojibayevna	
OZIQ-OVQAT SANOATIDA "ZAYLANMA IQTISODIYOT (CIRCULAR ECONOMY)" MODELINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	36
Elnoraxon Muminova Abdukurimovna	
Sarvinov Mamatojiyeva Dilshodjon qizi	
TRANSPORT KORIDORLARINI BOSHQARISHDA LOGISTIKA MENEJMENTINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	42
Umarova Dilfuza Rahmatulla qizi	
ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ И ПЕРСПЕКТИВ ЦИФРОВИЗАЦИИ МИСЕ-СЕКТОРА В УЗБЕКИСТАНЕ	47
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
ECONOMETRIC MODELING OF THE DYNAMICS OF RETAIL TRADE TURNOVER UNDER THE INFLUENCE OF REAL HOUSEHOLD INCOME USING A LOGARITHMIC FUNCTION	53
Gaybullayev Sarvar Uktam ugli	
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING MAZMUN-MOHİYATI VA NAZARIY ASOSLARI	59
Mizamova Umida Jamoliddin qizi	
SPORT TAKOMILLASHUVI BOSQICHIDAGI FUTBOLCHILARNING MUSOBAQA FAOLIYATIDA INNOVATSION VOSITALARNING O'RNI	64
Mamatraimov Anvar Chorshanbiyavich	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILINI VIZUAL MATERIALLAR VOSITASIDA O'RGATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	72
Olimova Shahlo Bahodir qizi	
Inomova Mahliyo Yusuf qizi	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI VA TASHQI AUDITNING NAZARIY ASOSLARI	76
Toshimov Azizbek Hakimovich	
Quvondiqov Shohboz Normamat o'g'li	
XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	81
Musurmonqulov Muhammad Ural o'g'li	
TEMIR YO'L ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY MEXANIZMI	86
Baymatov Atxam Axmadaliyevich	



MENEJMENT NAZARIYASINING SHAKLLANISHI VA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI.....	92
Saidova Xilolaxon Rashidjon qizi OPPORTUNITIES FOR USING MARKETING STRATEGIES TO ENSURE THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF HOTEL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN	97
Sardor Kuvandikov ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОГРАММ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ	106
Абдуллаева Зульфия Иззатовна NAMANGAN VILOYATINING HUDUDIYIQTISODIY TUZILMASI VA SHAHARLAR TIZIMINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI.....	113
Ahmadjanov Ilyosbek Ilhomjon o'g'li JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMI VA XALQARO TAJRIBALAR QIYOSIY TAHLILI	117
G'afforov Kamronbek “O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI” AJNING SINGULYAR VA BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	123
Bobojonova Zarnigor Shokirovna MINTAQAVIY IQTISODIY JARAYONLARNI BAHOLASHDA DSGE MODELINING QASHQADARYO SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN TAHLILYI KOMPONENTLARI.....	132
Muxitdinov Xudayar Suyunovich Quvatova Gulzoda Faxriddin qizi O'ZBEKISTONDA TIBBIY TURIZM VA TIBBIY XIZMATLAR TIZIMINING MAZMUNI	137
Ergasheva Iroda Ibrohim qizi FOYDA SOLIG'INING BANKLAR MOLIYAVIY HOLATIGA TA'SIRINI BAHOLASH	141
Maxmudov Omon To'xtayevich RAQAMLI INFRATUZILMA TUSHUNCHASI, TARKIBI VA IQTISODIY MAZMUNI.....	147
Pardayev Orifjon Charshamiyevich O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	152
Omonova Zarina Xudoymurodovna RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (Shartli “suv ta'minot servis” AJ misolida).....	160
Doniyorova M. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KORXONALARI RIVOJLANISHINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.....	164
Komilova Shaxnoza Komiljon qizi SUN'YI INTELLEKT ASOSIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA XODIMNING QIYMAT YARATISH DARAJASINI BAHOLASHNING INTEGRALLASHGAN MODEL (EVC1)	169
Xaydarova Malika Shokirjon qizi ГОСУДАРСТВЕННАЯ ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА УЗБЕКИСТАНА И МЕХАНИЗМ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ	174
Нодира Илхамовна Саидахмедова Жамолiddин Ярашевич Нуриллаев THE RELATIONSHIP BETWEEN FRUGALITY AND INNOVATION: A THEORETICAL AND METHODOLOGICAL PERSPECTIVES.....	181
Allaberganov Zakir Gaibovich Alimova Guzal Abdukhakimovna BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA TARMOQLARARO INTEGRATSIYANING INSTITUTSIONAL MODEL.....	188
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	



AHOLINI IJTIMOYIY HIMOYALASH TIZIMINI BOSHQARISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	196
Xamroyev Anvar Ashurovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI QAYTI ISHLAYDIGAN BIZNES SUBYEKTLARIDA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH	202
Ismaylov Kuvatbay Sarsenbayevich	
IQTISODIYOT TARMOQLARINI QO'LLAB-QUVVATLASHDA FISKAL INSTRUMENTLARNING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI	206
Mardonov Kamoliddin Karamiddinovich	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA ULARNI BOSHQARISH	212
Hamroyeva Feruza Azizjon qizi	
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA TARMOQLARARO INTEGRATSIYANING INSTITUTSIONAL MODELINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	217
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	
RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING IQTISODIY MAZMUNI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	226
Sirojev Nurbek G'ulomiddin o'g'li	
EKOLOGIK GLOBALLASHUV SHAROITIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI.....	231
Nurmatov Samandar G'ayratovich	
TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALAR (FDI)NING ROLI VA UNI RAG'BATLANTIRISH OMILLARI	238
Bau Long	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ КОМПЛЕКС РЕГИОНА КАК ОБЪЕКТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ	244
Axrarova Shodiyxon Ja'farxon kizi	
PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING KOMPLEKS USLUBIYATI	247
Djurayev Davlat Djonibekovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA MOLIALASHTIRISHNING ZAMONAVIY AMALIYOTDAGI HOLATI TAHLILI	250
Raxmanova Laylo Baxodirovna	
SOLIQ QARZDORLIGINI HISOBLASH VA UNDIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY SUBYEKTLAR MOLIAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH	256
Payziyev Hamid Orziqulovich	
PUL-KREDIT SIYOSATI INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	260
A.A. Ismailov	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORIGA TA'SIRI	266
Elmurodov Shohzod Shavkatovich	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATI — MILLIY IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHNING ASOSIY INSTRUMENTI SIFATIDA.....	272
A.A. Ismailov	
ETNOGRAFIK RESURSLARDAN FOYDALANISHNING STRATEGIK BOSHQARUV TAMOYILLARI ASOSIDA TURIZM SAMARADORLIGINI OSHIRISH	278
Axmedov Ikrom Akramovich	
O'ZBEKISTON TASHKILOTLARIDA UCHRAYDIGAN BOSHQARUV MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI	285
Abiyev Jahongir Ne'matovich	
XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION FAOLIYATNING NAZARIY MODEL VA ILMIY YONDASHUVLARI.....	290
Abikayumov Bekzod Turdiniyozovich	



O'ZBEKISTONDA KIMYO SANOATI KORXONALARINING RAQAMLI SALOHİYATINI BAHOLASH: RSI INDEKSI ASOSIDA ILMİY TAHLIL.....	294
Odinayev Nuriddin Ramozon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY QIMMATLI QOG'OZLARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	300
Hakimov Ikrom Izzatillo o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I BO'YICHA STRATEGIK ISLOHOTLARNING AHAMIYATI.....	305
Amanov Akram Mirzayevich	



QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I BO'YICHA STRATEGIK ISLOHOTLARNING AHAMIYATI

Amanov Akram Mirzayevich
TDIU, "Soliq va soliqqa tortish" kafedrası professorı

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi agrar sektorida amalga oshirilayotgan soliq islohotlari, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti PF-153-son Farmoniga¹ muvofiq joriy etilgan qo'shilgan qiymat solig'ining (QQS) "nol" (0 foiz) stavkasi tizimining iqtisodiy mohiyati tahlil qilingan. Shuningdek, sohani raqamlashtirish, kosmik monitoring hamda elektron hisobvaraƒ-fakturalar tizimini joriy etish bo'yicha erishilgan natijalar, mavjud imkoniyatlar va ularni yanada takomillashtirish yo'nalishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi korxonalari, soliq imtiyozlari, qo'shilgan qiymat solig'i, nol stavka, iqtisodiy rag'batlantirish, klaster, soliq ma'muriyatchiligi, risk-tahlil.

Аннотация. В данной статье проанализирована экономическая сущность налоговых реформ, реализуемых в аграрном секторе Республики Узбекистан, в частности системы налога на добавленную стоимость (НДС) по «нулевой» (0-процентной) ставке, введенной в соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан № УП-153. Также освещены достигнутые результаты, перспективные возможности и направления дальнейшего совершенствования процессов цифровизации отрасли, внедрения космического мониторинга и системы электронных счетов-фактур.

Ключевые слова: сельское хозяйство, сельскохозяйственные предприятия, налоговые льготы, налог на добавленную стоимость, нулевая ставка, экономическое стимулирование, кластер, налоговое администрирование, риск-анализ.

Abstract. This article analyzes the economic essence of tax reforms implemented in the agricultural sector of the Republic of Uzbekistan, particularly the value-added tax (VAT) system with a "zero" (0 percent) rate introduced in accordance with Presidential Decree No. PF-153. The study also highlights the achievements, opportunities, and further improvement directions related to sector digitalization, space-based monitoring, and the implementation of the electronic invoicing system.

Keywords: agriculture, agricultural enterprises, tax incentives, value-added tax, zero rate, economic stimulation, cluster, tax administration, risk analysis.

KIRISH

Qishloq xo'jaligi mamlakatimiz iqtisodiyotining strategik tarmog'i hisoblanadi. So'nggi yillarda ushbu sohada soliq tizimini soddalashtirish, uning samaradorligini oshirish hamda ishlab chiqaruvchilar uchun qulay iqtisodiy sharoitlarni yaratish maqsadida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi korxonalari, jumladan, agroklastlar va fermer xo'jaliklari faoliyatida qo'shilgan qiymat solig'ini (QQS) joriy etish hamda uni takomillashtirishga qaratilgan strategik islohotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon iqtisodiyotida geosiyosiy o'zgarishlar va iqlim omillarining ta'siri ortib borayotgan bugungi sharoitda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi aholini hayotiy muhim mahsulotlar bilan ta'minlash, sanoat uchun zarur xomashyo bazasini yaratish hamda bandlikni qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, agrar sektorning o'ziga xos xususiyatlari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada rivojlantirishni talab etadi. Shu sababli dunyoning ko'plab mamlakatlarida ushbu tarmoq moliyaviy-kredit va soliq instrumentlari orqali rag'batlantirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham agrar sohani modernizatsiya qilish, fermer xo'jaliklari va agroklastlarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, soliq siyosatini liberallashtirish va tarmoq subyektlari uchun yanada qulay sharoitlar yaratish ushbu islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 04.09.2025 yildagi PF-153-son <https://lex.uz/uz/docs/-7716359>



Prezidentning 2025-yil 4-sentabrdagi PF-153-sonli² “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash va sohada soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni agrar sohani rivojlantirishda muhim bosqich bo‘ldi. Mazkur hujjatga muvofiq, 2026-yil 1-yanvardan boshlab qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini (paxta va g‘alladan tashqari) realizatsiya qilishda qo‘shilgan qiymat solig‘ining “nol” (0 foiz) stavkasi joriy etilishi sohada iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish va ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur maqolada qishloq xo‘jaligi korxonalariga taqdim etilayotgan soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligi baholanadi, qo‘shilgan qiymat solig‘ining “nol” stavkasi tizimining iqtisodiy mohiyati ilmiy jihatdan asoslanadi hamda sohada soliq ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qo‘shilgan qiymat o‘zining iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra, sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar qiymati bilan ularni ishlab chiqarish jarayonida iste‘mol qilingan tovarlar, xomashyo va xizmatlar qiymati o‘rtasidagi farqni ifodalaydi. Ishlab chiqarish jarayonida hamda mehnat taqsimoti natijasida ma‘lum bir tovar bozorga chiqarilgunga qadar bir necha bosqichlardan o‘tadi va ushbu bosqichlarning har birida qo‘shimcha qiymat yaratiladi. Shu bois qo‘shilgan qiymat iqtisodiy o‘sish va ishlab chiqarish samaradorligini baholashda muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini davlat byudjeti daromadlari tarkibiga kiritish g‘oyasi dastlab XX asr boshlarida shakllangan. Mazkur taklif ilk bor 1919-yilda Germaniya byudjet amaliyotida Vilgelm fon Simens tomonidan ilgari surilgan.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini amaliyotga joriy etish va undirish mexanizmi esa ilk bor fransuz moliyachisi Moris Lore tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur konsepsiya dastlab tajriba tariqasida qo‘llanilgan bo‘lsa-da, keyinchalik o‘zining yuqori samaradorligini namoyon etdi. Natijada Fransiyada qo‘shilgan qiymat solig‘i 1968-yildan boshlab keng ko‘lamda amaliyotga joriy etildi [4].

Hozirgi kunda iqtisodiy adabiyotlarda qo‘shilgan qiymat solig‘ining iqtisodiy ahamiyati va zaruriyatini asoslashga qaratilgan turli ilmiy yondashuvlar mavjud. Jumladan, G. Litvinseva ta‘kidlashicha, “Qo‘shilgan qiymat solig‘i bilvosita soliqlar tarkibiga kirsa-da, uning muhim jihati korxonalar va iste‘molchilar faoliyatining holati hamda istiqbollari baholash imkonini berishidir” [5].

S. V. Barulning fikricha, “zamonaviy soliq siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortishning samarali modelini shakllantirish va uning barqaror rivojlanishini ta‘minlashdan iborat” [6].

Qo‘shilgan qiymat solig‘i turli iqtisodiy rivojlanish bosqichlaridagi ko‘plab mamlakatlarda bilvosita soliqqa tortishning samarali va ishonchli shakli sifatida e‘tirof etiladi. Mazkur soliq turi bugungi kunda jahon soliq amaliyotida keng qo‘llanilib, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish, iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish hamda soliq ma‘muriyatchiligini samaradorligini oshirishda muhim o‘rin egallamoqda [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tahlil, induksiya, deduksiya, tizimli va kompleks yondashuv usullaridan keng foydalanildi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning qo‘shilgan qiymat solig‘i hamda qishloq xo‘jaligi korxonalarini soliqqa tortish sohasidagi ilmiy qarashlari o‘rganildi, sohaga oid qonunosti hujjatlari va me‘yoriy-huquqiy asoslar tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy nazariyaga ko‘ra, soliq siyosati davlatning iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash hamda tarkibiy o‘zgarishlarni samarali amalga oshirish imkonini beruvchi muhim vositalardan biridir. J. M. Keynes va uning izdoshlari tomonidan asoslangan nazariy yondashuvlar strategik tarmoqlarga beriladigan soliq rag‘batlari investitsiyaviy faollikni oshirish, mahsulot tannaxini optimallashtirish va ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Qishloq xo‘jaligida soliq imtiyozlarini qo‘llashning o‘ziga xos jihatlari mavjud. Tarmoqda ishlab chiqarish siklining nisbatan uzoq davom etishi (vegetatsiya davri, chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish muddatlari va boshqalar) moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha taqdim etiladigan imtiyozlar korxonalarining pul oqimlarini yanada samarali boshqarish,

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 04.09.2025 yildagi PF-153-son <https://lex.uz/uz/docs/-7716359>



ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash va moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, agrar sektorni qo'shilgan qiymat solig'i orqali tartibga solishning uchta asosiy modeli shakllangan:

1. Tabaqalashtirilgan (pasaytirilgan) stavkalar modeli (Yevropa Ittifoqi tajribasi).

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida (Germaniya, Fransiya, Niderlandiya va boshqalar) qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun standart qo'shilgan qiymat solig'i stavkasidan past bo'lgan maxsus stavkalar qo'llaniladi. Masalan, Germaniyada standart QQS stavkasi 19 foiz bo'lsa, asosiy oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun 7 foizlik stavka belgilangan. Niderlandiyada esa standart 21 foizlik stavka o'rniga 9 foizlik stavka qo'llaniladi. Mazkur tizim ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlash va aholining ijtimoiy farovonligini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

2. Soliqdan ozod qilish modeli.

Ayrim davlatlarda qishloq xo'jaligi korxonalarida qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladi. Ushbu model ishlab chiqaruvchilarga qo'shimcha yengillik yaratishi bilan ahamiyatlidir. Shu bilan birga, kiruvchi QQS summalarini qaytarib olish imkoniyati cheklanganligi sababli ayrim hollarda ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish bo'yicha qo'shimcha mexanizmlarni talab etadi.

3. "Nol" stavka modeli.

Mazkur model iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'lgan mexanizmlardan biri sifatida Buyuk Britaniya, Kanada va Avstraliya kabi davlatlarda keng qo'llaniladi. Bunda mahsulot realizatsiyasida QQS stavkasi 0 foiz etib belgilanadi, biroq korxonalar QQS to'lovchisi maqomini saqlab qoladi. Natijada ishlab chiqarish jarayonida xarid qilingan resurslar bo'yicha to'langan QQS summalarini davlat byudjetidan qaytarib olish imkoniyati yaratiladi. Bu esa korxonalarining moliyaviy resurslarini kengaytirish va investitsion faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda 2026-yil 1-yanvardan boshlab aynan "nol" stavka modelining joriy etilishi milliy soliq tizimining xalqaro tajriba va zamonaviy iqtisodiy yondashuvlar bilan uyg'unlashib borayotganidan dalolat beradi.

2025-yil 4-sentabrdagi PF-153-sonli Farmonga muvofiq, ushbu imtiyozdan foydalanishning asosiy mezon sifatida korxonalar umumiy realizatsiya daromadlarida o'zi yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining kamida 80 foizni tashkil etishi belgilangan.

Mazkur maqsadli mezon quyidagi iqtisodiy natijalarga xizmat qiladi:

- adolatli taqsimotni ta'minlash, ya'ni soliq imtiyozlari bevosita qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi subyektlarga yo'naltiriladi;

- bozor mexanizmlarining samaradorligini oshirish, ya'ni imtiyozlarning maqsadli va shaffof qo'llanilishiga xizmat qiladi;

- ishlab chiqarishni rag'batlantirish, ya'ni tarmoq korxonalarini ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish, mahsulot yetishtirish samaradorligini oshirish va agrar faoliyatni yanada rivojlantirishga undaydi.

Har qanday keng ko'lamlı iqtisodiy mexanizmni amaliyotga joriy etish jarayoni tashkiliy, texnik va huquqiy jihatlarini izchil takomillashtirib borishni talab etadi. Qishloq xo'jaligi korxonalarida qo'shilgan qiymat solig'ining "nol" stavkasini qo'llash amaliyoti ham ushbu tizimning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiluvchi qator ustuvor yo'nalishlarni yuzaga chiqarmoqda.

1. Raqamli infratuzilma va fermerlarning malaka darajasini rivojlantirish

Yangi tizim to'liq raqamlashtirilgan bo'lib, elektron hisobvaraƒ-fakturalar yuritish va soliq organlarining maxsus axborot tizimlari bilan ishlashni talab etadi. Shu bois ayrim hududlarda fermer xo'jaliklari rahbarlari va buxgalterlarining raqamli ko'nikmalarini yanada rivojlantirish, shuningdek, telekommunikatsiya infratuzilmasini takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Mazkur yo'nalishdagi chora-tadbirlar tizimning samarali ishlashini ta'minlashga xizmat qiladi.

2. Kosmik va agro-monitoring tizimlarini yanada takomillashtirish

Amaldagi tartibga ko'ra, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yetishtirilganligi Space Gov Monitoring tizimi orqali tasdiqlanadi. Mazkur tizim agrar sektorda shaffoflikni ta'minlashga xizmat qilayotgan bo'lsa-da, aralash ekinlar yetishtiriladigan maydonlarni aniqlash aniqligini yanada oshirish imkoniyatlari mavjud. Sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari va zamonaviy geoinformatsion texnologiyalarni takomillashtirish orqali monitoring natijalarining ishonchligini yanada kuchaytirish mumkin.

3. Risk-tahlil tizimining samaradorligini oshirish

Soliq organlari tomonidan qo'llanilayotgan avtomatlashtirilgan xavflarni boshqarish tizimi soliq



ma'muriyatchiligida shaffoflik va qonuniyligni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, fermer xo'jaliklari uchun hamkor korxonalar faoliyati bo'yicha axborotlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish risklarni baholash jarayonining yanada adolatli va samarali bo'lishiga xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalariga taqdim etilayotgan soliq imtiyozlari uzoq muddatli istiqbolda mamlakatning makroiqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ta'sirni quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha baholash mumkin.

1. Iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish

Agrar sektorda elektron hisobvara-fakturalar va rasmiy shartnomalar asosida ishlash amaliyotining kengayishi xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatini yanada shaffoflashtiradi. "Nol" stavka tizimi ishlab chiqaruvchilarni hujjatlarni to'liq va qonuniy rasmiylashtirishga rag'batlantiradi. Natijada iqtisodiy munosabatlarning ochiqligi va hisobdorligi yanada kuchayadi.

2. Investitsiyaviy jozibadorlik va modernizatsiyani rag'batlantirish

Soliq imtiyozlari hisobiga korxonalar ixtiyorida qoladigan qo'shimcha moliyaviy resurslar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishga yo'naltiriladi. Jumladan:

- tomchilatib va yomg'irilatib sug'orish kabi suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish;
- zamonaviy sovutkichli omborxonalarni barpo etish va mahsulotlarni saqlash samaradorligini oshirish;
- yuqori unumdor texnika va agregatlarni lizing asosida xarid qilish imkoniyatlarini kengaytirish.

Mazkur omillar ishlab chiqarish samaradorligi va mahsulot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

3. Eksport salohiyatini oshirish va diversifikatsiya qilish

O'zbekistonning meva-sabzavot mahsulotlari xalqaro bozorlarda yuqori sifat va tabiiylik ko'rsatkichlari bilan ajralib turadi. "Nol" stavkali QQS tizimi eksport qiluvchi korxonalar uchun qo'shimcha iqtisodiy qulayliklar yaratib, mahsulotlarning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshiradi. Natijada nafaqat xomashyo, balki yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan tayyor oziq-ovqat mahsulotlari eksportini kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar yaratiladi. Bu esa eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo'jaligi korxonalarida qo'shilgan qiymat solig'i tizimini strategik isloh qilish nafaqat byudjet daromadlarini shakllantirishning muhim vositasi, balki agrar tarmoqni raqamlashtirish, iqtisodiy munosabatlar shaffofligini kuchaytirish va sohani modernizatsiya qilishga xizmat qiluvchi muhim omildir. Samarali soliq siyosati qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, investitsion faolligini oshirish hamda mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun qulay sharoit yaratadi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi korxonalarini, xususan, qo'shilgan qiymat solig'ining "nol" stavkasi orqali rag'batlantirish mexanizmining joriy etilishi agrar sektorni rivojlantirishga qaratilgan muhim va istiqbolli islohotlardan biri hisoblanadi. Mazkur tizim soliq zanjirining uzluksizligini ta'minlash bilan birga, ishlab chiqaruvchilarning aylanma mablag'larini samarali boshqarish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va mahsulot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari yangi soliq mexanizmining samaradorligini yanada oshirish uchun raqamli infratuzilmani rivojlantirish, kosmik monitoring tizimlarining aniqligi va funksional imkoniyatlarini kengaytirish hamda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Ushbu yo'nalishlarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tizimning amaliy samaradorligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo'jaligini soliq imtiyozlari orqali qo'llab-quvvatlash siyosati kelgusida O'zbekiston agrosanoat majmuasining xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish, qishloq aholisi farovonligini yuksaltirish hamda mamlakatning iqtisodiy va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-sentabrdagi "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va sohada soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-153-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-7716359>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillardagi taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-fevraldagi "Qishloq xo'jaligida aholi bandligini oshirish va yer uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-69-son Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-6389631>

Satish P. K., Lore M., Borodovsky L. The Yield Curve // The Professional's Handbook of Financial Risk Management. – 2000.

Литвинцева Г.Д. К необходимости реформы НДС // Налоговый менеджмент. – 2018. – № 6. – С. 23–27.

Барулин С.В. Формирование эффективной модели НДС и эффективность её развития // Проблемы экономики и юридической практики. – 2012. – № 6. – С. 71–75.

Jo'rayev A., Amanov A., Shodiev O. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish: darslik. – Toshkent: TMI, 2020. – 134 b.

Аманов А.М. Определение налоговой задолженности // Вестник современной науки. Научно-теоретический журнал. – 2016. – № 4. – Ч. 1. – С. 77–79.

Аманов А.М. Приоритетные направления совершенствования налоговой системы Республики Узбекистан // Экономика и бизнес: теория и практика. – 2017. – № 5. – С. 17–20.

Аманов А.М. Сельское хозяйство Республики Узбекистан в условиях цифровизации экономики // Интернаука: научный журнал. – 2021. – № 19(195). – Ч. 4. – Москва: Изд-во «Интернаука». – С. 16–19.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>